

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**Qo‘l yozma huquqida
UDK(54:681.14)**

JUMAYEV PARVOZ NORBOYEVICHNING

**“Metallar bo‘limi misolida virtual laboratoriyalarni o‘quv jarayonida
qo‘llash metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi**

Mutaxassislik: 5A110301 “Kimyo o‘qitish metodikasi”

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

«Himoyaga tavsiya etaman»

Magistratura bo‘limi

boshlig‘i: t.f.n., dos..

_____M.X. Esanov

« _____ » _____ 2014 y.

“Kimyo va uni o‘qitish metodikasi”

kafedra mudiri: k.f.n., dos.

_____N.I.Bozorov

Ilmiy rahbar: k.f.d., prof.

_____G.N.Dolimova

Toshkent – 2014

M U N D A R I J A

Kirish	3
I bob. Virtual laboratoriyalardan foydalanish samaradorligi (adabiyotlar tahlili)	9
1. Virtual laboratoriyalar bo'yicha rus tilidagi elektron nashrlar.	9
2. Virtual laboratoriyalar bo'yicha internet resurslari	18
I bob bo'yicha xulosa	
II bob. Metallar mavzusini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish samaradorligi (asosiy qism)	29
1. Metallar mavzusiga bag'ishlangan dars ishlanmalari tahlili	29
2. Metallar mavzusi bo'yicha virtual laboratoriyalarni qo'llagan holda dars ishlanmasini yaratish	34
II bob bo'yicha xulosa	48
III-bob. Pedagogik eksperiment	49
1. Pedagogik eksperiment uchun sinflarni tanlash	49
2. Pedagogik eksperiment va uning natijalarini tahlil qilish	55
III bob bo'yicha xulosa	62
Xulosalar	63
Foydalanilgan adabiyotlar	64
Ilovalar	
Glossariy	

KIRISH

Soʻnggi yillarda Respublikamizda ijtimoiy soha obyektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 169 ta kasb-hunar kolleji va 14700 oʻrinli 23 ta akademik litsey qurildi va rekonstruksiya qilindi. Shu bilan birgalikda 69 ta yangi maktab barpo etildi va 582 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi. Bu obyektlar zamonaviy asbob-uskunalar va axborot texnologiyalari bilan jihozlanib, Respublikamizning chekka qishloqlarida ham bugungi kunda internetga chiqish imkoniyatlari yaratildi. Bu esa oʻquvchilarga yetkaziladigan axborot oqimini cheksiz darajada oshiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining¹ qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan boʻlib, milliy tajribaning tahlili va taʼlim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda moʻljalni toʻgʻri oʻl bilish mahoratiga ega boʻlgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yoʻnaltirilgandir.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni oʻz ichiga oladi, bu sohada:

- tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari toʻgʻrisidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish, oʻrganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi;
- oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;
- kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan taʼminlash infrastrukturasi vujudga keltiriladi, taʼlimning axborot tarmoqlarida

¹Oʻzbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» / Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1997. - 11-12-son. - Toshkent.

foydalanish maqsadida bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

- mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo'ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ushbu tizimga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarurligi ko'rsatib o'tilgan:

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash chora-tadbilarini ishlab chiqish;

- ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish;

- kadrlar tayyorlash milliy dasturini samarali tarzda bajarishni ta'minlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

- yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro'yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro' e'tibori va ijtimoiy maqomini oshirish;

- mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini faollashtirish, ta'lim sohasi va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ilmiy yutuqlar va olimlar bilan o'zaro almashinuv jarayonini kuchaytirish;

- fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta'sis etish, maxsus stipendiyalar

sonini ko‘paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko‘rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish¹.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda yosh avlodga chuqur bilim beradigan, fikrlash doirasi keng, kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, xuquqiy demokratik jamiyat a‘zolarini ozod va erkin yashashga, mustaqil fikr yuritishga o‘rgata oladigan yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan. “Ilgari biror bir mamlakatning taraqqiyoti va kuch qudratini ifodalash, hamda baholash uchun uning mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklari va iqtisodiy salohiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuning uchun prezidentimiz I.A.Karimov “...Bugun dunyo taraqqiyotning shunday bosqichiga qadam qo‘ydiki, har qanday millat va davlat imkoniyatlarining hal qiluvchi belgisi - ma‘rifat, insonlarning intellektual, kasbiy va ma‘naviy salohiyatidir” - deb ta‘kidlaydi².

Yuqorida keltirilganlarni hisobga olgan holda magistrlik dissertatsiyasining mavzusi to‘g‘ri tanlangan va ishlab chiqilgan mavzu – “Metallar mavzusini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish samaradorligi” – bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari uchun, oliy o‘quv yurtlarining, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning talabalari, tadqiqotchilar va noorganik kimyoni mustaqil o‘rganuvchilar uchun foydali qo‘llanma bo‘lishiga ishonch bildiramiz.

Mavzuning dolzarbligi. Ta‘limning barcha sferalarida kompyuter texnologiyalarini qo‘llash yordamida tayyorgarlik tizimini intensivlashtirish va tez sur‘atlar bilan modernizatsiya qilish usullari izlanmoqda. Kompyuter texnologiyalarining inson faoliyatining instrumentlari va o‘qitishning prinsipial yangi uslubi sifatidagi imkoniyatlari o‘qitishning yangi usullari va tashkiliy shakllarining vujudga kelishiga olib keldi.

¹O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuni / O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1997. - 9-son. - Toshkent. – 1995.

²I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir / T. - O‘zbekiston. – 2010. – b.37.

Ta'limning eng samarador usullaridan biri *vizualizatsiya* (vizuallashtirish) bo'lib, bu usul turli hodisalar mohiyatini sodda va chuqur bilib olishga yordam beradi. Ko'rgazma qurollarining qadim davrlardanoq ishlatilganligi ushbu tasdiqning isboti bo'la oladi. Vizualizatsiya va modellashtirish oddiy darsliklarda beriladigan o'zgarmas (statik) rasmga qarab, tushunish qiyin bo'lgan, dinamik vaqt davomida o'zgaruvchi obyektlar va hodisalarni o'rganishda ayniqsa foydalidir.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'qitishning faol metodlarini ta'minlab beruvchi interfaol, multimedialar bilan to'yingan ta'lim resurslaridan foydalanganda samarador bo'lishi aniqlangan. Ushbu talablarga virtual reallikning ta'lim resurslari va tizimlari to'liq javob beradi. Jumladan, real dunyo obyektlarini kompyuter ta'lim muhitida modellashtirish imkonini beruvchi virtual laboratoriyalar bunga misol bo'la oladi. Virtual laboratoriyalar o'quvchi va talabalarga yangi bilimlarni o'zlashtirib olishlarida va kimyo, fizika, matematika, informatika, biologiya kabi tabiiy-ilmiy dissiplinalar bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishlariga yordam beradi.

Birok, virtual laboratoriyalar hozirgacha o'zbek tilida juda kam ishlab chikilgan va ularning mavjudlari ham o'rta umumta'lim maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollej, oliy ta'lim o'quv jarayoniga joriy etilgan emas. Shuning uchun ham o'zbek tilida virtual laboratoriyalar ishlab chikish va ular yordamida kimyo darslarida o'quv eksperimentlarini o'tkazish metodikalarini ishlab chiqish hozirgi kimyo o'qitish ta'limining dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot obyekti. Umumta'lim maktablarda anorganik kimyo kursida metallar bo'limi misolida virtual laboratoriyalarni o'quv jarayonida qo'llash metodikasini takomillashtirib o'qitishning mazmuni, shakli, usul va vositalari.

Tadqiqot predmeti. Umumta'lim maktablarda kimyo, xususan, anorganik kimyo fani.

Tadqiqotning maqsadi. Noorganik kimyo kursi tarkibiga kiruvchi metallar

bo‘limi misolida virtual laboratoriyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash metodikasini ko‘rsatishdan iborat.

Maqsadga muvofiq tarzda **tadqiqotning vazifalari** sifatida quyidagilar belgilandi:

- virtual laboratoriyalarning yaratilishi, qo‘llanilishi, samaradorligi haqida mavjud adabiyotlar tahlilini o‘tkazish;
- “Metallar” mavzusi bo‘yicha virtual laboratoriya ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan virtual laboratoriyani o‘quv jarayoniga tatbiq etish;
- pedagogik eksperiment o‘tkazish.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Kimyo o‘quv predmetini virtual laboratoriyalardan foydalanib o‘qitish va umuman virtual laboratoriyalar bo‘yicha qator maqola va internet saytlari mavjud. Bu borada ilk adabiyotlar tahlili Aleksey Kutovenko tarafidan amalga oshirilgan (2011). Virtual axborot-ta’lim laboratoriyasi o‘quvchilar mustaqilligini oshirish vositasi sifatida qator mualliflar tarafidan o‘rganilgan (Krivoluskaya N.V., 2001; Mixaylov V.Yu., Gostev V.M., Kugurakova V.V., Chugunov V.A., 2002; N.A.Gurina, O.A.Medvedeva, 2007; Krasnyanskiy M.N., 2007;). Virtual laboratoriyadan mustakil foydalanishni taklif etuvchi saytlar qatoriga elektron o‘quv nashrlarini (Учебное электронное издание: Химия. 8–11 класс. Виртуальная лаборатория, 2CD + методическое пособие;), internet saytlarini (VirtuLab. - www.virtulab.net; PhET.– www.phet.colorado.edu; Wolfram Demonstrations Project. - www.demonstrations.wolfram.com; IrYdium Chemistry Lab. - www.chemcollective.org/vlab/vlab.php) kiritish mumkin. Bulardan tashkari virtual laboratoriyalar kimyoning alohida bo‘limlari uchun ham ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ham o‘quvchilarning kimyoviy bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi (Микилева Г.Н., Терехов А.А., Иванова Л.А. Виртуальная лаборатория по аналитической химии, Мультимедийное обучающее электронное издание, <http://db.inforeg.ru/deposit/catalog/mat.asp>,

2010; Неорганическая химия. Электрохимия. Виртуальные лаборатории ЕНКА, <http://www.advsystems.ru/news/detail/6276.html>). Virtual laboratoriyalardan foydalanishning metodik aspektlari ham qator pedagoglar, olimlar tarafidan o'rganilgan (Шубина И.М. ИКТ - компетентность современного учителя, <http://nsportal.ru/shkola>; Н.Н. Пильникова. Разработка обобщающего урока по теме “Металлы”, <http://him-school.ru>; Л.Ю.Рыбакова. Методическая разработка урока по теме “Строение металлов и их физические свойства”, <http://festival.1september.ru>; А.А.Якушкина, Е.В.Алексеева. Виртуальные лаборатории, Вопросы информатизации образования, 2005). Yuqorida keltirilgan adabiyotlarda virtual laboratoriyalardan foydalanib kimyo o'quv predmetini o'qitish muammolariga kam ahamiyat berilgan. O'zbek tilida esa ushbu muammoga bag'ishlangan ilmiy ishlar deyarli yo`q hisob.

Tadqiqotning metodi. Tadqiqotga oid ilmiy, o'quv-dasturiy adabiyotlarning tahlili, ta'lim jarayonini pedagogik kuzatish, aqliy hujum, muammoli metod, klaster, anketa so'rovnomalari, pedagogik texnologiyaning interfaol metodlari, pedagogik tajriba-sinov ishlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Noorganik kimyo kursi tarkibiga kiruvchi “Metallar” mavzusiga oid virtual laboratoriya ishlab chikildi. Ushbu virtual laboratoriya o'rta umumta'lim maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollej, oliy ta'lim o'quv yurtlari talaba va o'quvchilari uchun, o'qituvchilar uchun foydali manba bo'ladi va o'rganilayotgan jarayonlarning to'lik vizuallashtirilishiga olib keladi, kimyoviy reaksiyalar, moddalarning tuzilishi va xossalarini to'liq anglash va ularning mohiyatini tushunishga yordam beradi va pirovardida ta'lim oluvchining bilish faolligi va ijodiy faolligining shakllanishiga yordam beradi.

Dissertatsiyaning tarkibi: Dissertatsiya 71 bet kompyuterda terilgan matndan iborat bo'lib, 10 ta rasm, 1 ta jadvalni, 4-ilova, 77 ta bibliografik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Dissertatsiya kirish, uchta bob (adabiyotlar

tahlili, asosiy qism, pedagogik eksperiment qismi) xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilova va glossariydan iborat. Olib borilgan ishlarning natijalari bo'yicha "Pedagogik ta'lim" jurnalida 2013 yilda 2 ta maqola, UzMU xabarlar jurnalinig maxsus sonida 1 ta maqola e'lon qilingan.

I BOB. VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI (adabiyotlar tahlili)

1. Virtual laboratoriyalar bo'yicha rus tilidagi elektron nashrlar

Ta'lim sistemasini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etilishini, ijtimoiy hayotning barcha jabxalarida faol ishtirok etuvchi ijodiy barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan virtual ta'lim, virtual maktablarning vujudga kelishini ko'zda tutadi. Ushbu masala ayniqsa ta'limning asosiy zvenosi bo'lgan umumta'lim o'rta maktablarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qator tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra elektron o'quv materiallari qo'llangan darslarni maktab ta'lim sistemasiga joriy etish zarurdir.

Kompyuter texnologiyalarini ta'limga joriy etish ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning natijasi sifatida obyektiv va muqarrar jarayon bo'lgach, ta'limni virtuallashtirish ham, bunday joriy etishning bir turi sifatida haqiqatdan ham dolzarb masaladir.

Real olam obyektlarini kompyuterli ta'lim muhitida modellashtirilishiga imkon beruvchi va o'quvchilar tarafidan yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallab olishga yordam beruvchi virtual laboratoriyalar amaliyotchi-pedagoglarning diqqat markazidadir. Aksariyat pedagoglarning fikricha virtual laboratoriya – o'quv, o'quv uslubiy, amaliy, lug'aviy, nazorat qiluvchi-o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi-test oluvchi materiallarni o'zida saqlagan integratsiyalashgan informatsion muhitdan iboratdir.

O‘quv eksperimentlarining hammasini ham “real” rejimda o‘tkazish kerak yoki mumkin emas. Shuning uchun, kompyuter modellashtirish texnologiyalari ushbu sohaga kirib keldi. Hozirgi davrda o‘quv eksperimentlarini virtual o‘tkazishga mo‘ljallangan qatorprogrammalar paketlari mavjud bo‘lib, ular virtual laboratoriyalar yoki virtual onlayn laboratoriyalar deb ataladi. Ushbu tipdagi hozirgi zamonaviy tarmoq loyihalarining rivojlanishida bir nechta tendensiya kuzatiladi.

Virtual laboratoriyalarga qiziqish bu qadar ortganini izohlash uchun mavjud adabiyotlarni o‘rganib, ularni tahlil qilish ushbu adabiyotlar tahlilining maqsadidir. Mazkur tahlil, birinchidan, virtual laboratoriyalar bo‘yicha bor adabiyotlarni yig‘ib, sistemalashtirib, ular haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini bersa, ikkinchidan, ulardan foydalanish yo‘llarini aniqlash imkoniyatini beradi va o‘zbek tilida virtual laboratoriyalar yaratish uchun asos vazifasini ham o‘tashi mumkin.

Oxirgi yillarda umumta’lim o‘rta maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quv dasturiga kiritilgan kimyo o‘quv predmeti bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tishni yengillashtirish uchun virtual laboratoriyalar ishlab chiqilmoqda. Biroq, ularning aksariyati rus va chet tillarida bo‘lib, o‘zbek tilida dars o‘tish uchun bunday materiallar deyarli yo‘q darajada. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi internet portalida noorganik kimyo bo‘yicha 3 ta mavzuning virtual laboratoriya ishlanmasi mavjudligini aytib o‘tish joiz¹. Ular ham bo‘lsa 7-sinf uchun mo‘ljallangan: 1-Amaliy mashg‘ulot: Kimyo xonasida jihozlar va reaktivlar bilan ishlashdagi havfsizlik qoidalariga rioya qilish va 3 - Amaliy mashg‘ulot: Ifloslangan osh tuzini tozalash mavzulariga bag‘ishlangan 2 ta virtual tajribadan iborat.

Elektron ta’lim resurslarining zamonaviy bozori juda tez rivojlanmoqda. O‘qituvchiga qator pedagogik rejaviy dasturlar (PRD) taklif etiladi. Kundan kunga

¹O‘zR Xalq ta’limi vazirligi portali // <http://eduportal.uz/rus/info/virtlab/>

ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, jumladan kimyoga o'qitishga qaratilgan bunday resurslarning imkoniyatlari ortib bormoqda. Shu munosabatda prinsipial masalalar ham paydo bo'lmoqda, ya'ni hozirgi zamonaviy maktab talablariga qaysi pedagogik rejaviy dasturlarni ishlatgan ma'qul, ularni qachon va qayerda ishlatish kerak? Bu dasturlar bilim olish yo'lida yordamchi bo'lishi uchun, shaxsning rivojlanishi uchun maktab o'quvchilariga qanday imkoniyatlarni berishi lozim? Ushbu masalalarni muvaffaqiyatli yechishlari uchun pedagogik rejaviy dasturlarni yaratuvchilar va ishlab chiquvchilar qaysi yo'ldan borishlari lozim.

Hozirgi vaqtda o'quv materialini elektron nashrlarda keltirish usullari va zamonaviy o'qitish nazariyalari orasida nomutanosiblik mavjud. Aksariyat elektron o'quv materiallari hozirgacha, ba'zan ozroq flash-animatsiya elementlari kiritilgan, statik gipermatnli hujjatlar tarzida tayyorlanmoqda. Shu bilan bir vaqtda interfaol, multimedia bilan to'yingan ta'lim resurslarini qo'llash ta'lim jarayoni samaradorligining ortishiga olib kelishi zamonaviy tadqiqotlar natijasida ko'rsatib berilgan.

Bunday nomutanosiblikning mohiyati, bir tarafdin, shundan iboratki, ta'lim beruvchi gipermatnni yaratish jarayoni bir muncha arzon va sodda. Aksincha, faol o'qitish uchun informatsion ta'lim muhitini loyihalashtirish va uni amalga oshirish ko'p vaqt va moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Ammo, o'quvchining o'quv jarayonida kompyuter bilan muloqotda bo'lishi pedagogik rejaviy dasturlar mashina va foydalanuvchi orasida to'laqonli intellektual dialogni nazarda tutuvchi interfaollikning yuqori darajadagi o'lchovlariga javob bera olsagina samara beradi.

Hozirgi jahon virtual ta'lim berish bozori juda taraqqiy etgan. Uning juda ko'p turlari bo'lib, tanlash imkoniyati juda keng. Virtual imkoniyatlar kundan kunga kengayib boyib bormoqda. Shahar va qishloqlarda texnik imkoniyatlarning oshib borishi ximiya shuningdek uning virtual laboratoriya imkoniyalarini hamda unga bo'lgan talabning oshib borishiga sabab bo'lmoqda. Uning imkoniyatlarining kengayib borishi quyidagi savollarni to'ldirmoqda. Masalan,

Virtual pedagogik ma'lumotlar manba hozirgi zamon talablariga javob beradimi?

Ularni qayerlarda va qaysi sharoitlarda ishlata olish imkoniyatlarga egamiz?

Bizga halal berish emas, balki, bilim berishida yordamchimiz bo'lishi mumkinmi?

Bu savollarga javob topishimiz uchun esa hozirgi zamon virtual qo'llanmalar yaratuvchilarga yuqoridagi talablar qo'yilmoqda. Hozirgi kunda davlat ta'lim standartlariga javob bermaydigan va o'quv materiallariga zid bo'lgan elektron va virtual laboratoriya mashg'ulotlari bo'lib, ular umuman hozirgi zamon o'qitish uslubiga mos emas. Aksariyat elektron darsliklar hozir ham juda katta miqdordagi giper tekislar shaklida yoki zerikarli statistik ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu esa zamonaviy pedagogik dars o'tish uslublari uchun to'siqdir. Hozirgi vaqtda zamonaviy tajriba sinov va kuzatuvlar natijasida darslarni zamonaviy interaktiv multimediya vositalari orqali o'tilgan darslar juda ham samarali bo'lishini takidlab o'tganlar. (Anderson T. et al., 2004).

An'anaviy metodda dars o'tish o'zining arzonligi hamda, kam vaqt talab qilishi bilan o'qituvchilar uchun qulaydir, lekin bunga qarama qarshi ravishda o'zining samarasi bilan ajralib turuvchi zamonaviy noan'anaviy metodlar ko'p vaqt talab qilishi va iqtisodiy jihatdan ko'p mablag' talab etishi bilan ajralib turadi.

An'anaviy metod va noan'anaviy metod animatsiyali ko'rinishlar qachon o'z samarasini berishi, bu zamonaviy texnika yani kompyuterlarga bog'liq bo'lib, bunda bolaning qiziqishi uning zamonaviyligi hamda tezkorligiga bog'liqdir. O'qitilayotgan o'quvchilarni agarda o'zlari bevosita ushbu tajribalarni kompyuterlarda bajarishsa ular masalani yechish xulosa kabi murakkab jarayonlarni hal etishda bevosita ishtiroki ularning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi, buning uchun esa maktablarda kerakli sharoitlarni yaratish zarurdir.

O'tkazilgan tajribalar natijasida elektron o'qitish jarayonlari va uning manbari ko'rinishidagi dars jarayoni samaralidir. (Anderson T. et al., 2004). Prenskiy fikriga ko'ra bu jumalarni quyidagicha izohlaydi, yani o'qitilayotgan yoshlarning ko'pchiligi yuqori interaktual multimedia o'qitish uslubini o'zlari qabul qilishi video o'yinlar bilan bog'liqdir. Shu sababli ularning oddiy eski uslubdagi ma'ruza effektlarini qabul qilishi qiyin va ular uchun zerikarli. O'quvchilar tabiiy hamda real voqealarga boy bo'lgan hayotiy multimedia vositalarni takomillashtirishni talab etadi. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqat e'tiborini faqatgina interaktiv metodlar va ularning mustaqil firklashiga chorlaydigan aktiv metodlar samara berishi mumkin. Bularga virtual laboratoriya o'qitish uslubi real obyektiv qarashlarini hayotiy tajribalarni kompyuterlarda qo'llashi misol bo'la oladi va bu yangi bilimlarni kimyo, biologiya, fizika kabi fanlarda samarali yordam beradi.

Virtual shuningdek bunday vidio, aktiv metodlar qo'llanilganda uning ishtirokchi o'quvchilari o'z fikrlarini quyidagicha izohlaydilar ya'ni uning obykti modellashtirilgan laboratoriya mashg'ulotlari real tajribalardan hech ham farq qilmasligini aytadilar. Omadsiz tajribalar yoki o'quvchiga qiziqarsiz bo'lgan kompyuter effektlardan qochish uchun ikki xil kompyuter effektlarini tayyorlash usullari bor. Birinchisi: Pedagogik pragrammalar ma'lumotlari, misol uchun bajarilayotgan tajribaga izoh yoki turli xil ko'rsatmalar ko'p bo'lmasligi zarur ular qisqa londa va tushunarli bo'lishi shart. Ikkinchisi: Kompyuterdan foydalanayotgan o'quvchilar nazoratsiz turmasligi ya'ni o'qituvchining nazoratida bo'lishi kerak. O'qituvchi kompyuterda ishlayotgan o'quvchining fantaziyasiga doir masalalarni ishlashi va aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqishi uning aqliy rivojlanishiga xizmat qilishi kerakdir. Tanqidiy fikrlar shuningdek o'qituvchilarning tinimsiz real voqelikka asoslangan laboratoriyadan virtual laboratoriyaga o'tilishi yaxshi natija bermasligini takidlashsada biroq, uning samarasi kimyoviy laboratoriya sharoitida va uni aniq ta'savvur qilishida, bevosita ishtirok etishida xafsizligiga kafolatdir.

8-11-sinflar uchun tayyorlangan kimyoviy virtual laboratoriya sharoiti MarGTU ishlab chiqaruvchilar tamonidan tayyorlangan multimediali laboratoriya sistemasi dastlabki urinishlardan bo'lib unda barcha pedagogik programmalarining qoidalari shuningdek o'quvchi hamda kompyuterning o'zaro hamkorligiga asoslangan edi. Uning keyingi versiyasida avvalgi xatolar hamda zirikarli effektlar olib tashlanib qiziqarli va juda ko'p tajribalarga boy kimyoviy laboratoriya sharoitini yaratishdi.

Virtual tajribalarni olib borish jarayoni: juda ko'p tajribalarda shu narsa takidlab o'tiladiki kimyo darsida o'qitish uning bevosita tajribani bajarish emas, aksincha uni bajarilish texnikasi ko'rsatish edi. Misol uchun Dalgarno o'z tajribalarida o'qiyotganlarga tajribalarni bajarish texnikasi tushuntirilar edi. Misol uchun kimyoviy probirka va asbob uskunalari ko'rsatilar edi. Shundan so'ng o'quvchilar real tajribalar o'tkazishgan. Karnevale o'z tajribalarini aksincha o'quvchilarni bevosita ishtiroki asosida o'zlari uchun yangi moddalarni yaratishlari uchun va shu tadribadan zavqlanishlari uchun laboratoriya madelini yaratdi. U har safar bu tajribalar xafsizligini va hatto umuman himoyasiz ishtiroksiz uchun ham xavfchiz ekanligini takidlab o'tgan. Virtual laboratoriya sharoitlarini yaratish uchun rang – barang usullardan foydalanish mumkin. Dalgarnoning fikricha uning shaxsiy kundaliklarida virtual tajribalar ishtirokchilar bajarilayotgan vazifalarni kuzatishi, yozuvlarni ko'chirib olishlari, ko'rsatilgan tajriba natijalarini esa jurnallarga qayt etib borishlari mumkin. (Dalgarno B., 2003)

J. Robinson o'z fikrlarida virtual laboratoriyani quyidagi kategoriyalarga ajratadi. Bu kategoriyalar esapredmeti hamda berilayotgan bilimga qarab ikkiga bo'linadi.

Birinchisi virtual laboratoriya predmet bilimlardan kelib chiqqan faktlarga asoslangan holda chegaralangan hamda oldindan pragirammalashtirilgan tajribalar. Bu yo'nalish ko'proq ishlatiladi va foydalanuvchilar ommasi uchun mashhurdir.

Ikkinchisi ya'ni boshqa kategoriya yo'nalishi ishtirokchining xoxlagan tajribalarini bajarishi oldindan belgilangan yoki tayyor natijalar bilan cheklanib

qolmaydi. Ikkinchi yo‘sindagi tajribalar matematik hisob kitoblar orqali tayyorlangan madellardan ishtirokchi tajribada o‘zining ishtiroki bevosita taminlangan holda har qanday natijani vizual ko‘rinishda oladi. Afsuski bu tajriba sinovlar juda ham chegaralangan hamda juda kam ish olib borilgan.

(Robinson J., 2003)

Bu yo‘nalishdagi virtual laboratoriya mashg‘ulotlari turli darajada foydalanilib, chet ellarda virtual laboratoriyalar ustida ish olib borilmoqda. Misol uchun umumiy va o‘rta ta‘lim maktablari uchun Virtual Chemistry Laboratory nomli Carnegie Mellon University (SShA) tomonidan ishlab chiqilgan va internetga kiritilgan. Shuningdek bu tajribalarni bevosita ko‘chirib olish imkoniyati bor. Vizual 2D ko‘rinishida bo‘lib, tadriba sinovlari esa Yaron D. et al., 2001 matematik madelida ishlab chiqarilgan. Virtual Chemical Lab mahsuloti bo‘lgan, hamda CD-ROM larga ko‘chirilgan 3D ko‘rinishdagi virtual tajribalar Brian F. Tamonidan ishlab chiqilgan modellar asosida pragirammalashtirilgan.

Virtual laboratoriyalar kimyoviy eksperimentlarni xuddi real laboratoriyada bajargandek bajarish imkonini beradi. Masalan, CD-ROM shaklida ishlab chiqilgan “*Virtual kimyoviy laboratoriya*” elektron nashrida interfaol dastur bo‘yicha 8-sinf o‘quvchisi reagentlarni tanlab olishi, idishga quyishi, yoki solishi, tajriba qurilmasini yig‘ishi, unda kimyoviy tajriba o‘tkazishi, kimyoviy reaksiyalarning virtual fotografiyalarini olishi, kuzatishlar natijalarini esa laboratoriya jurnaliga yozib borishi mumkin¹. Bularning barchasi maktab kimyo laboratoriyasida real tajriba o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradi. Ushbu virtual laboratoriya 8-sinf maktab kimyo dasturiga kiritilgan 60 ga yaqin

tajribalarni o‘z ichiga olgan. “Molekular konstruktori” nomli bo‘limda organik va noorganik moddalarning molekularini mustaqil



¹CD-ROM «Виртуальная химическая лаборатория. 8 класс (Jewel)» // rutracker.org

ravishda yig‘ish mumkin. “Masalalar” va “Testlar” bo‘limlari kimyo bo‘yicha masalalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu virtual laboratoriya ishlanmasida laboratoriya tajribalarini bajarish uchun, masalalarni yechish va berilgan materiallarni kimyoviy ta’lim standartlari doirasida o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan illyustrativ informatsiya ham keltirilgan. Ushbu elektron nashr Rossiya Federatsiyasi maktablari uchun ishlab chiqilgandir.

Yana bir elektron nashr: “8-11-sinflar. Kimyo. Virtual laboratoriya” deb nomlangan bo‘lib¹, ushbu ishlanmadan foydalanish tajribasi Penza shahri 42-gimnaziyakimyo o‘qituvchisi O.G.Bodinaning maqolasida o‘z aksini topgan².*1-rasm. 8-11-sinflar. Kimyo. Virtual laboratoriya elektron nashri*

Ushbu elektron nashr umumta’lim o‘rta maktabining joriy o‘quv jarayonida o‘quvchilarning kompyuter sinflarida tayyorlanishlari va auditoriyada foydalanishlari (ko‘rgazma) uchun ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, ushbu elektron nashrni mustaqil ta’limda ham (uyda, kutubxonada yoki mediamarkazda) ishlatish mumkin. “8-11-sinflar. Kimyo. Virtual laboratoriya” elektron nashrida beshta mavzu yoritilgan:

1. Kimyoviy laboratoriya asbob-uskunalar va ular bilan ishlash usullari;
2. Noorganik moddalarning xossalari;
3. Organik moddalarning xossalari;
4. Kimyoviy reaksiyalar;
5. Atom va molekular.

Ushbu mavzularning har birida laboratoriya mashg‘ulotlari, texnika havfsizligi bo‘yicha testlar bajariladi. Olingan bilimlar esa yakuniy testlar

¹Учебное электронное издание: Химия. 8–11 класс. Виртуальная лаборатория. (2CD + методическое пособие.) // Лаборатория систем мультимедиа, МарГТУ. - 2004.Размер: 1000МВ. - 1000С.

²О.Г.Бодина. Виртуальная лаборатория» — одно из средств интенсификации процесса обучения химии. <http://him.1september.ru/articlef.php>

yordamida nazorat qilinadi. Laboratoriya ishlarini bajarishda va elektron nashr bilan ishlashda ekranning pastki qismidagi chap burchakka joylashtirilgan so‘roq belgisini yoki “Kimyogar” figurasini bosib yordam olish mumkin.

Mazkur elektron nashr tarkibiga maktab kimyo o‘quv kursida ko‘rsatishga mo‘ljallangan 150 dan ortiq laboratoriya tajribalari kiritilgan. Kimyoviy tajribalar kerakli kimyoviy asbob-uskunalar (probirkalar, kolbalar, shtativlar va h-zo) bilan ta‘minlangan virtual laboratoriyada o‘tkaziladi. Kimyoviy asbob-uskunalar va kimyoviy jarayonlarni vizuallashtirish uchun 3D-grafikava animatsiyadan, hamda raqamli videotasvirdan foydalanilgan. Zarur holatlarda kerakli o‘lchashlarni va o‘tkazilayotgan tajriba parametrlarining o‘zgarishini virtual o‘lchash asboblari bilan o‘lchash imkoniyati ko‘zda tutilgan. Maxsus oynada sodir bo‘layotgan kimyoviy jarayonlarni ko‘rsatish imkoniyati ham mavjud¹.

Har bir laboratoriya ishi davomida o‘quvchi virtual fotografiyalar ko‘rinishida videokuzatishni amalga oshirib, olingan natijalarni “Laboratoriya jurnali”da qayd qilib, qayta ishlab va umumlashtirib boradi. “Laboratoriya jurnali”ni to‘ldirishda “Kimyoviy formulalar redaktori” deb nomlangan maxsus programma qo‘llaniladi.

Laboratoriya ishini bajarishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarning faoliyatlari haqida programma tarafidan nazorat olib boriladi, kerakli sharhlar va tavsiyalar matn holida, yoki pedagogik agent – kimyogarning replikalari tarzida berib boriladi. Eksperiment o‘tkazayotganda o‘quvchi uni bajarish uchun qadam baqadam ko‘rsatmalarni olib turadi, eksperimentni boshqa parametrlarda o‘tkazish ham programmada ko‘zda tutilgan. Ushbu elektron nashrning eng muhim tarafi shunda-ki, o‘quvchilarning olgan natijalari o‘qituvchi ko‘rishi va baholashi uchun kirish mumkin bo‘lgan individual fayllarda saqlanadi².

¹О.Г.Бодина. Виртуальная лаборатория» — одно из средств интенсификации процесса обучения химии. <http://him.1september.ru/articlef.php>

²О.Г.Бодина. Виртуальная лаборатория» — одно из средств интенсификации процесса обучения химии. <http://him.1september.ru/articlef.php>

Bulardan tashqari, ushbu elektron nashr tarkibiga “Molekulalar konstruktori”, “Testlar”, “Masalalar”, “Informatsion-ma’lumot materiallari” deb nomlangan bo‘limlar ham kiritilgan. Bularning barchasi kimyoviy bilimlarni shakllantirishda muhim o‘ringa ega bo‘lgan omillar hisoblanadi.

2. Virtual laboratoriyalar bo‘yicha internet resurslari

VirtuLab resursi. Bu resurs Runetdagi turli o‘quv dissiplinalari bo‘yicha eng yirik virtual tajribalar majmuasidir¹. Ushbu kolleksiyaning asosiy birligi – virtual eksperiment hisoblanadi. Texnik nuqtai nazardan u *Adobe Flash* yordamida ishlab chiqilgan interfaol rolikdir. Ba’zi laboratoriya ishlari uch o‘lchamli grafika usulida ishlab chiqilgan. Ular bilan ishlash uchun *Havok Physics Scene* bilan to‘ldirilgan

The screenshot shows the VirtuLab website interface. At the top, there is a navigation menu with categories: Главная, ФИЗИКА, ХИМИЯ, БИОЛОГИЯ, ЭКОЛОГИЯ, РЕФЕРАТЫ, АСТРОНОМИЯ, СТАТЬИ. The main content area is titled "Распознавание хлорид-, сульфат-, карбонат-анионов и катионов аммония, натрия, калия, кальция, бария". Below the title, there is a table of ions and their corresponding reagents and reactions.

Ионы	Реактивы		Наблюдение	Окислительно-восстановительные реакции
	Анионы	Катионы		
Cl ⁻	OH ⁻	Ag ⁺	БЕЗ	БЕЗ
SO ₄ ²⁻	CO ₃ ²⁻	Ca ²⁺	БЕЗ	БЕЗ
CO ₃ ²⁻	SO ₄ ²⁻	Ba ²⁺	БЕЗ	БЕЗ

Below the table, there are images of laboratory glassware and reagent bottles. A button labeled "Очистить" is visible at the bottom right of the simulation area.

¹VirtuLab
www.virtu-lab.ru


Adobe Shockwave Player dasturini kompyuterga o'rnatish kerak.

2-rasm. VirtuLab resursi – rus tilidagi virtual onlayn laboratoriyalarining eng yirik majmuasidir

Ushbu to'ldiruvchi komponentni director-online.com. saytida topish mumkin. Har bir rolik o'quv maqsadi va aniq vazifani ko'zlagan biror eksperimentni o'tkazish imkonini beradi. VirtuLab foydalanuvchisiga esa natijalarni olish uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va obyektlar taklif etiladi. VirtuLab roliklarida o'qitish aspekti juda kuchli, masalan, foydalanuvchi xatoga yo'l qo'ysa, xato tuzatilmaguncha sistema uni keyingi bosqichlarga o'tkazmaydi. VirtuLab eksperimentlarining kolleksiyasi juda keng va xilma-xil.

Arxiv 4 ta asosiy blokka ajratilgan: «Fizika», «Ximiya», «Biologiya» va «Ekologiya». Ushbu bloklar uz navbatida maxsus mavzuviy bo'limlardan iborat¹.

PhET resursi. Kolorado Universiteti ishlab chiqqan mazkur resurs ham o'z mazmuniga ko'ra ko'p tarmoqlidir. Uning sahifalarida fizika, kimyo, biologiya, geologiya sohalaridagi hodisalarni ko'rgazmali ko'rsatuvchi virtual laboratoriyalar bilan birgalikda interfaol matematik instrumentlar ham keltirilgan.



¹VirtuLab. - Язык интерфейса: русский. - Разработчик: Виртуальная лаборатория "ВиртуЛаб". - www.virtulab.net


3-rasm. *PhET* sayti *Java*-apletlarning ko‘p tarmoqli sayti bo‘lib, ular bilan onlayn rejimda va alohida kompyuterda ham ishlash mumkin¹.

PhET resursi katalogida bir necha yuz tajribalarning demonstratsiyalari keltirilgan. Ushbu resursning Cutting Edge Research bo‘limida eng zamonaviy tadqiqotlarga bag‘ishlangan demonstratsiyalar alohida keltirilgan. Arxivda yangiliklar regulyar ravishda ko‘rsatib boriladi va ularga New Sims bo‘limi bag‘ishlangan.

Translated Sims bo‘limida esa taklif etilayotgan virtual laboratoriyalar qaysi tillarga tarjima etilgani keltirilgan bo‘lib, ularning orasida rus tili ham bor. Rus tiliga o‘girilgan tarjimalar soni 50 ta. *PhET* resursi virtual laboratoriyalari *Java* texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Wolfram Demonstrations Project resursi. Onlayn laboratoriyalarning qimmatli manba‘laridan biri *Wolfram Demonstrations Project* ko‘p tarmoqli resursidir. Ushbu loyihaning maqsadi zamonaviy fan va texnikaning konsepsiyalarini vizual ko‘rgazma qilishdan iboratdir. Ushbu sayt *Wolfram* yirik internet loyihasining bir qismidir.

¹PhET. - Язык интерфейса: английский, русский. - Разработчик: University of Colorado. – www.phet.colorado.edu



4-rasm. Wolfram Demonstrations Project katalogi 7 mingdan ziyod virtual laboratoriyalarni o‘z ichiga olgan

Hozirgi davrda *Wolfram Demonstrations Project* resursi katta katalogga ega - 7 mingdan ziyod interfaol demonstratsiyalarni o‘z ichiga olgan.


Ushbu dasturda laboratoriya va demonstratsiyalar yaratishning texnologik asosi sifatida *Wolfram Mathematica* qo‘llangan. Demonstratsiyalarni ko‘rib chiqish uchun maxsus *Wolfram CDF Player* (150MB) ni o‘rnatish kerak buladi. Katalog bilimlarning turli sohalariga taalluqli 11ta asosiy bo‘limdan iborat¹.

IrYdium Chemistry Lab resursi. Ko‘p tarmoqli resurslardan tashqari Internet tarmoqlarida alohida fanlarga bag‘ishlangan anchagina ixtisoslashgan onlayn laboratoriyalar mavjud. Masalan, *The ChemCollective* loyihasining bo‘limlaridan biri *IrYdium Chemistry Lab* virtual laboratoriyasidir². Uning tuzilishi yuqorida keltirilgan barcha loyihalardan farq qiladi. Foydalanuvchiga tajribalarni olib borishda to‘liq erkinlik berilgan. Laboratoriya Java-aplet

¹Wolfram Demonstrations Project. - Язык интерфейса: английский. - Разработчик: Wolfram Demonstrations Project & Contributors. - www.demonstrations.wolfram.com

²IrYdium Chemistry Lab. - Язык интерфейса: русский, английский. - Разработчик: The ChemCollective. – www.chemcollective.org/vlab/vlab.php

ko‘rinishida ishlab chiqilgan, uni yuklab olib, lokal kompyuterda ishga tushirib yuborish mumkin. Aplet interfeysi bir necha zonalarga ajratilgan bo‘lib, o‘rtada olib borilayotgan eksperimentni kuzatish uchun ishchi zonasi joylashtirilgan. O‘ng tarafda (kolonkada) asboblari paneli joylashtirilgan – bu yerda olib borilayotgan reaksiyalar haqidagi informatsiya chiqariladi: temperatura, kislotalilik ko‘rsatkichlari, molyarlik va h-zolar.




5-rasm. IrYdium onlayn kimyoviy laboratoriyasi ishlatishda yuqori moslashuvchanligi bilan ajralib turadi

Chap tarafda esa turli virtual “reaktivlar ombori” joylashtirilgan. Ushbu ombor ierarxik daraxt tarzida tuzilgan turli virtual reaktivlar majmuasidan iborat. Bu yerda kislotalar, asoslar, indikatorlar – kimyogar eksperimentator uchun zarur bo‘lgan barcha moddalarni topish mumkin.

Online Labs in katalogi. O‘nlab va yuzlab virtual tajriba maydonchalariga ega bo‘lgan yirik resurslardan tashqari Internetda ma’lum, tor mavzular bo‘yicha kichik miqdorda qiziqarli eksperimentlarni taklif etayotgan saytlar ham anchagina. Bunday holatda kerakli demonstratsiyalarni topish uchun foydalanuvchilarga ushbu kabi saytlarga iqtibos beruvchi, ularning kolleksiyalarini jamlovchi va

sistemalashtiruvchi loyiha-kataloglar albatta kerak bo‘ladi. Bu borada Online Labs in (onlinelabs.in) katalogi juda yaxshi start oluvchi maydoncha bo‘la oladi.



6-rasm. Kichik virtual laboratoriyalarni izlashda Online Labs in loyihasi yaxshi start maydonchasi hisoblanadi

Ushbu resurs fanning turli sohalari bo‘yicha taklif etilayotgan onlayn kirib ishlash mumkin bo‘lgan eksperimental maydonchalar va laboratoriyalarga berilgan iqtiboslarni yig‘ish va sistemalashtirish bilan shug‘ullanadi. Har bir fan uchun alohida bo‘lim ajratilgan. Ushbu loyihaning diqqat markazida eng avvalo fizika, ximiya va biologiya bo‘limlari turadi va ular doim yangilanib boradi¹.

Analitik kimyo bo‘yicha virtual laboratoriya. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan tashqari adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kimyoning alohida bo‘limlari bo‘yicha ham virtual laboratoriyalar ishlab chiqilgan ekan. Bu borada analitik kimyo bo‘yicha Kemerovo Oziq-ovqat sanoati texnologiyasi instituti

¹Onlinelabs in chemistry, physics, biology, anatomy, geology, astronomy, design, math // <http://onlinelabs.in>

o'qituvchilari tarafidan ishlab chiqilgan virtual laboratoriyani aytib o'tish mumkin -*Virtualnaya laboratoriya po analiticheskoy ximii*¹.

YeNKA virtual laboratoriyalari. Shuningdek noorganik kimyo va elektrokimyo bo'yicha ham virtual laboratoriyalar ishlab chiqilgan, *Virtualnqe laboratorii YeNKA*². Ushbu virtual laboratoriya juda ko'p kimyoviy reaktivlar, o'lchagich asboblari, laboratoriya uskunalari, tayyor modellar majmualari bilan ta'minlangan-ki, ular kimyoviy reaksiyalarni ko'rgazmali o'rganish, ularning sifat va miqdoriy xarakteristikalarini bilib olish imkonini beradilar. Ekranda real eksperimentdagi kabi yonish, bug'lanish, rangning va hajmning o'zgarishi va h-zolarni kuzatish mumkin. Moddalarning o'zgarishi formulalar, ionlar yoki matn holida, hamda moddaning atom tuzilishini tasvirlovchi uch o'lchamli rasm holida ham namoyon etilishi mumkin. Virtual laboratoriyada o'qituvchi aynan dars uchun zarur bo'lgan tajribalarni ko'rsatishi mumkin.



7-*rasm. YeNKA virtual laboratoriyalari*

¹Микилева Г.Н., Терехов А.А., Иванова Л.А. Виртуальная лаборатория по аналитической химии // Мультимедийное обучающее электронное издание. - CD-R. -Кемерово. - ФГБОУ ВПО КемТИПП. – 2010. - № гос. регистрации - 0321001470. <http://db.infoforeg.ru/deposit/catalog/mat.asp>

²Неорганическая химия. Электрохимия. Виртуальные лаборатории ЕНКА // <http://www.advsystems.ru/news/detail/6276.html>

Eksperiment davomida u yoki bu jarayonning reaksiya sharoitlariga bog‘liqligini aks ettiruvchi grafiklarni tuzish mumkin, eksperiment real sharoitlarda o‘tkazilganda bunday imkoniyat yo‘qligini aytib o‘tish lozim. Ushbu kabi eksperimentlarni o‘tkazish olingan nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlashga yordam beradi.

YeNKA virtual laboratoriyalarida keltirilayotgan tajribalar juda ko‘p real ekologik jarayonlarning modelidir, masalan, kislota yomg‘irlarining vujudga kelishi, atmosferaning ifloslanishi va h-zolar. Bunday tajribalarni o‘tkazish ularning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Super-chemistry sayti. Kerakli tajribalarni topish uchun foydalanuvchilarga ushbu kabi saytlarga iqtibos beruvchi, ularning kolleksiyalarini jamlovchi va sistemalashtiruvchi loyiha-kataloglar orasida *Super-chemistry* saytini alohida ta’kidlab o‘tish joiz¹. Ushbu saytda siz turli kimyoviy dasturlar va ularni rusifikatsiya qiluvchi dasturlarni ham ko‘rishingiz mumkin. Dasturlarning aksariyati bepul tarqatiladi, masalan *FreeWare* dasturi, ba’zilar shartli pulli, masalan *ShareWare* dasturi, ba’zilar esa pulli, *Sommercial* kabi.

Ushbu saytda keltirilayotgan iqtiboslar orasida *Model ChemLab 2.5*², *Electrochemical Cells Pro 2.2.0.6*³, *Accord ChemExplorer*⁴, *Systematicchem Solution Viewer 1.1.9*⁵, *Termodinamika 2.3*⁶, *Chemister CDB 1.1.0*⁷, *Chemical Formula Tutor 1.3*⁸ virtual laboratoriyalarini sanab o‘tish mumkin. Ularning hammasi ham o‘quvchi uchun foydali bo‘lib, masalan, *Model ChemLab 2.5* dasturi turli kimyoviy reaksiyalarni virtual o‘tkazishga mo‘ljallangan. Dasturdan tashqari ushbu saytda molekulalarning 3D-strukturalarini ko‘rishga mo‘ljallangan *RasWin*–

¹Super-Chemistry // <http://super-chemistry.narod.ru/>

²Model Science Software Inc. - <http://www.modelscience.com> Русификатор ChemLab 2.5

³Bruce Levett - <http://chemware.co.nz> Electrochemical Cells Pro. - Русификатор Electrochemical Cells Pro 2.2.0.6

⁴Accelrys Inc. - <http://www.accelrys.com> ChemExplorer 5.2 - Русификатор ChemExplorer 5.2

⁵SysChem.Inc. - <http://www.syschem.com> Systematicchem Solution Viewer 1.1.9 - Русификатор

⁶Трусов Б.Г. - <http://bmstu.ru> Термодинамика 2.3

⁷Кипер Р.А. - <http://chemister.ru> Chemister CDB 1.1.0

⁸Bruce Levett - <http://chemware.co.nz> Chemical Formula Tutor 1.3 - 866 Кб. - Русификатор Chemical Formula Tutor 1.3


mobil dasturi ham kiritilgan. Ushbu dasturni qoʻllab molekulalarning strukturalarini aylantirish, turli burchaklar ostida qarab chiqish, almashtirish buferiga nusxa olish, yoki bir necha grafik formatlarda saqlab qoʻyish mumkin. Bundan tashqari ushbu saytda elementlarning davriy sistemasi ham berilgan.

Systematicchem Solution Viewer 1.1.9 dasturi foydalanuvchilarga juda koʻp sonli sintezlarni koʻrib chiqish va ularni turlarga ajratish imkonini beradi. Bu dastur molekula va reaksiyalarni maxsus ustqurma *MDL Chime* yordamida koʻrib chiqish imkoniyatini beradi¹.

Chemical Formula Tutor 1.3 dasturi – turli moddalarning, asosan noorganik tuzlar va asoslarning formulalarini tuzishga oʻrgatuvchi dastur boʻlib, ikki xil rejimda ishlaydi – oʻrgatish va nazorat qilish (testlar yordamida)². Shunday qilib, *Super-chemistry* sayti foydalanuvchilar uchun qimmatli iqtibos va maʼlumotlarni bera oladi va ularni yigʻish uchun ketadigan vaqtni tejaydi.

Aytish lozim-ki, Rossiyaning baʼzi regionlarida virtual laboratoriyalar markazlashtirilgan holda maktablar tarafidan sotib olinib, oʻquv jarayoniga joriy etilmoqda. Misol tariqasida «Arximed» - raqamli oʻquv laboratoriyalarini keltirish mumkin³.

Virtual Chemistry Lab 2.0 Portable resursi. Ushbu dastur kator imkoniyatlari mavjud boʻlgan virtual kimyoviy laboratoriyadan iborat.



¹SysChem.Inc.
²Bruce Levett -
Tutor 1.3
³Национальный
shkola.pf/new

8-rasm. Virtual Chemistry Lab 2.0 Portable resursi

Virtual Chemistry Lab ukituvchilar, talabalar va kimyoga kizikuvchilar uchun foydali instrument xisoblanadi. Dastur intuitiv arajada tushunarli tuzilgan, ya'ni unda ishchi stol va ikkita kimyoviy reaktivlar va asbob-uskunalar joylashtirilgan javon mavjud. Tajriba olib boish uchun foydalanuvchi stolga kerakli asbob-uskunalarni kuyishi va va ularga reaktivlarni solishi zarur. Dastur reaksiyalar bo'yicha ma'lumotlar bazasiga ega va ularning aksariyatini vizual kursata oladi. Ushbu dastur bo'yicha kimyoviy eksperimentlarni utkazish usuli real laboratoriyada olib boriladigan ishlarni eslatadi. Dasturda "yordamchi" mavjud bulib, u dasturdagi barcha uzgarishlar xakida xabar berib turadi¹.

Virtual Chemistry Lab dasturida juda kup kushimcha instrumentlar, jumladan elementlarning davriy sistemasi, eruvchanlik jadvali, oksidlanish reaksiyalari bo'yicha jadval va xatto glossariy, tenglamalar redaktori, o'lchov birliklari konvertori kabi resurslar xam kiritilgan. Bulardan tashqari dasturda o'z-o'zini nazorat qilish uchun testlardan o'tish, ilmiy kalkulyator, laboratoriya ishlarini o'tkazish imkoniyatlari ham ko'zda tutilgan.

9-rasm. 1S-Bitriks»virtual laboratoriyasi

«1S-Bitriks»virtual laboratoriyasiushbu dasturiy maxsulotning funksional imkoniyatlarini amalda urganish imkonini beradi. Siz uchun personal demonstratsion sayt yaratilib, unda administrator sifatida ushbu maxsulotning barcha imkoniyatlarini tekshirib olishingiz mumkin buladi. Masalan, matni vizual redaktor yordamida taxrir kilish, yangi saxifalar va bulimlarni qo'shish, menyu punktlarini boshqarish, yangiliklarni e'lon kilib borish, saytga kiruvchilar statistikasini kurib borish, dizaynni o'zgartirish va boshka kup imkoniyatlar².



¹Virtual Chemistry Lab 2.0 Portable – портативная химическая лаборатория // www.chemistry.dortikum.net

²Виртуальная лаборатория «1С-Битрикс: Управление сайтом»<http://www.1c-bitrix.ru/support/>

Xulosa. Magistrlik dissertatsiyasida ko‘rib chiqilayotgan muammo – darsning strukturaviy elementi bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash muammosini nazariy tahlil qilish va amalda sinab ko‘rish quyidagi gipotezani ilgari surish imkoniyatini berdi:

- bilimlar sifatini oshirish bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash metodikalarini takomillashtirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir va uning mazmunini maxsus tashkil etishni taqozo etadi, ya’ni: muammoli va differensirlangan o‘qitish metodlaridan foydalanish, mustaqil ishlar, o‘qitishning produktiv va reproduktiv metodlaridan foydalanish;

- bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashni yanada to‘liqroq amalga oshirishga virtual laboratoriyalardan foydalanish imkon beradi.

II BOB. METALLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

(asosiy qism)

1. Metallar mavzusiga bag‘ishlangan dars ishlanmalari tahlili

Virtual laboratoriyalarni tuzishdan maqsad - o‘rganilayotgan mavzuni har taraflama vizuallashtirishga intilishdan iborat. Bunda asosiy vazifalardan biri – ta’lim oluvchining virtual laboratoriyalar mazmuni va mohiyatini iloji boricha to‘liq anglashi va tushunishi imkoniyatlarini ta’minlab berishdan iboratdir. Virtual laboratoriyalar ko‘rgazmalilik, interfaollik, talaba va o‘quvchilarning bilish va ijodiy faolligini oshirishga yordam beradi. Virtual laboratoriyalar atrof olam obyektlari va jarayonlarini modellashtirishga, real laboratoriya uskunalari bilan ishlash ko‘nikmalarini tashkil qilishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida axborot – kommunikatsion texnologiyalarini (AKT) tatbiq etish muammolari Delinger¹, P.P. Dyachuk², Shubina I.M.³ ishlarida keltirilgan. Virtual laboratoriyalarni yaratish va ulardan foydalanish masalalarini esa dastlab Koterov D.V., Leskov N.S. va boshqa olimlar tadqiq etishgan.

Virtual laboratoriyalarning afzal taraflarini ta'kidlagan holda, ushbu vositaning uslubiy materiallarni ishlab chiqish vaqtini qisqartirishga yordam berishini va asosiy diqqatni o'rganilayotgan nazariyaga va olinayotgan natijalarga karatish imkoniyati mavjudligini aytib utish joiz. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, virtual informatsion-ta'lim laboratoriyasi:

- o'quv jarayonida o'qituvchining o'rnini bosmagan xolda, ta'lim oluvchini mustaqil o'rganish va o'z-o'zini nazorat qilish sur'atini tanlash erkinligi bilan ta'minlab, o'qitishning samarali instrumenti sifatida foydalanilmoqda;
- o'zida kompyuter imkoniyatlari bo'lgan yaxshi darslik xususiyatlarini saqlagan-ki, bu o'z navbatida katta hajmdagi axborotni saqlay olish, ko'rgazmalilik, matn, grafika, audio-va video-axborotlarni birga ishlata olish imkoniyatlari mavjudligi bilan belgilanadi;

Virtual laboratoriya sharoitlarida amaliy ishlarni bajarishning asosiy afzal taraflariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'rganilayotgan qonun yoki reaksiyalarning ko'rgazmali namoyish etilishi va ularning to'g'ri ekanligining tasdiqlanishi;
- reaksiyalarni, barcha hisob-kitoblarni mustaqil olib borish, jarayonlarni kuzatish imkoniyati;

¹ Далингер В.А., Информационные технологии как компонент предметного содержания подготовки магистров математического образования//XII межд. конференция-выставка «Информационные технологии в образовании» («ИТО-2002») 4—8 ноября. - 2002. - М. ноябрь. - 2002. - М.

² Дьячук П.П., Лариков Е.В. Применение компьютерных технологий обучения в средней школе / КГПУ. - 1998. — С.167.

³ Шубина И.М. ИКТ - компетентность современного учителя // <http://nsportal.ru/shkola/obshchepedagogicheskie-tehnologii/library/ikt-kompetentnost-sovremennogo-uchitelya>

- olib borilaplotgan eksperimentlarning butunlay xavfsiz ekanligi, sinf havosining toza saqlanishi;
- tajribalarni individual olib borish imkoniyatining o'quvchilarning mustaqilligining rivojlanishiga, ularning konstruktorlik qobiliyatlari va texnik idrokining rivojlanishiga ta'siri;
- dars davomida virtual laboratoriya ishlarini olib borish nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi vaqt to'sigini olib tashlaydi, bu esa o'qitishning samaradorligi va sifatining oshishiga, o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatining aktivlashishiga olib keladi;
- virtual laboratoriya ishlarini bajarish nostandart va muammoli vaziyatlarni hal qilishda o'quvchilarning subyektiv tajribasining shakllanishini ta'minlab beradi.

Metallar mavzulari umumta'lim o'rta maktablarining o'quv dasturiga kiritilgan noorganik kimyo fanining mustakil bo'limini tashkil etadi. Ushbu bo'lim mavzulari noorganik kimyo bo'yicha mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarida yoritilgan va noorganik kimyoning muhim mavzularidan hisoblanadi¹. Metodik adabiyotlar orasida umumlashtiruvchi dars ishlanmasi sifatida berilgan metallar mavzusi² o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham foydali yordamchi ko'llanma bo'la oladi. Jumladan, ushbu dars ishlanmasida ilgari o'rganilgan 4 ta metall – natriy, kalsiy, alyuminiy va temir haqida bilimlarni umumlashtirish darsning maqsadi etib qo'yilgan.

Darsning ta'lim beruvchi vazifalari sifatida:

1. Ushbu metallarning xossalari, biologik roli, tabiatda uchrashi, olinishi va qo'llanilishi haqidagi o'quvchilar bilimlarini umumlashtirish;

¹ N.A.Parpiyev, H.R.Raximov, A.G.Muftaxov Anorganik kimyo nazariy asoslari. T.: "O'zbekiston" 2000 y.

² Н.Н.Пильникова. Разработка обобщающего урока по теме «Металлы» // <http://him-school.ru>

2. Aniq misollar orqali kimyoning boshqa fanlar bilan aloqasini ko'rsatish keltirilgan;

Darsning rivojlantiruvchi vazifalari sifatida:

1. Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishni davom ettirish;
2. Notiqlik va kreativlik (yaratuvchanlik) bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish;
3. Darsning nostandart shaklidan foydalanib, dars mazmuni tarkibiga yangilik elementlarini ko'shgan xolda, bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish keltirilgan.

Darsning tarbiyaviy vazifalarisifatida esa:

1. Kommunikativ madaniyatni tarbiyalashni davom ettirish;
2. Insonlarga tolerant (chidamli) munosabatda bo'lishni tarbiya qilishni davom ettirish;
3. Maqsad sari intilish va tashabbuskorlikni tarbiya qilishni davom ettirish kiritilgan.

Dars "Eng muxim metall" nomli o'yin shaklida o'tadi. O'quvchilar oldindan berilgan 4 ta metall xaqida ma'lumot yig'adilar, ularning foydali taraflari va kamchiliklarini ajratib ko'rsatadilar. Rollar taqsimlanganda metallarning foydali taraflari uchun bir o'quvchi, kamchiliklari haqidagi ma'lumotlarni esa uch o'quvchi – "biolog, geolog, injener" berib boradilar¹. Bunday dars o'quvchilarda qiziqish uyg'otmasdan qolmaydi, albatta, lekin, ularni bunday darsga maxsus tayyorlash kerak bo'ladi.

Metallar mavzusi bo'yicha dars ishlanmalaridan yana birida² darsning maqsadi sifatida quyidagilar keltirilgan:

¹ Н.Н.Пильникова. Разработка обобщающего урока по теме «Металлы» // <http://him-school.ru>

² Л.Ю.Рыбакова. Методическая разработка урока по теме "Строение металлов и их физические свойства" // <http://festival.1september.ru>

- Kimyoviy elementlarning davrlar va gruppalar bo‘ylab xossalaring o‘zgarishi, metallar atomlarining tuzilishi, ularning davriy sistemada tutgan o‘rni haqidagi bilimlarni mustahkamlash;
- o‘quvchilarda metall bog‘ va metallarning kristall panjarasi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- Metallarning xossalari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- o‘quvchilarning moddalarni taqqoslash va analogiyalarni keltirish, xossalardagi o‘xshashlik va farqni ko‘ra bilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Dars tipi – yangi bilimlarni shakllantirish deb ko‘rsatilgan. Dars berish usuli esa muammoli suhbat, ko‘rgazmali eksperiment, amaliy ish va test olish kabi belgilangan.

Metallar mavzusini virtual laboratoriya imkoniyatlarini qo‘llab o‘tkazilgan darslarning ishlanmalari ham talaygina¹. Bunday darslarning metodik aspektlari hali to‘liq o‘rganilmagan, biroq, shunday bo‘lsa ham, virtual laboratoriyalardan foydalanish samarador usul ekanligiga shubxa yukdir. Masalan, virtual ekspeditsiya uyini tarzida “Metallar” mavzusida o‘tkazilgan dars davomida shu mavzu bo‘yicha bilimlar umumlashtiriladi va sistemalashtiriladi². Ushbu dars ishlanmasiga prezentatsiya ham berilgan. Darsning ta‘lim, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy masalalari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Juda ko‘p tadqiqotlarda kimyo ta‘limida virtual eksperimentlarning tutgan o‘rni, ahamiyati keltirib o‘tilgan va ulardan foydalanish afzalliklari ham ta‘kidlangan. Masalan, virtual tajribalar o‘quvchilarni tajriba bajarilishidan oldin eksperiment bajarilishi texnikasi bilan, kimyoviy idishlar, asbob-uskunalar bilan tanishtiradi. Bu esa uz navbatida o‘quvchilarning tajribalarni real sharoitlarda ham

¹ А.А. Якушкина, Е.В. Алексеева. Виртуальные лаборатории // Вопросы информатизации образования. - №7. - 2005.

² Рапацевич Л.В. Урок-игра: Виртуальная экспедиция «В поисках острова Химических сокровищ». Обобщение и систематизация знаний по теме «Металлы» // <http://nsportal.ru>

yaxshirok bajarishga tayyorlanishiga yordam beradi¹. Aytish lozimki, virtual kimyoviy eksperimentlar tayyorgarligi yo‘q bo‘lgan foydalanuvchilar uchun ham xavfsizdir. O‘quvchilar real laboratoriyada bajarilishi qiyin, xavfli yoki qimmat bo‘lgan tajribalarni virtual bajarish imkoniyatiga egadirlar. Bundan tashkari ushbu maqolada virtual eksperimentlar o‘tkazish tajribasi o‘quvchilarni kuzatishlarni yozib borish ko‘nikmalariga, hisobotlar yozishga, ma’lumotlarni laboratoriya jurnalida interpretatsiya qilishga o‘rgatadi.

Virtual laboratoriyalarga bag‘ishlangan yana bir makolada esa, kimyoviy laboratoriyaning kompyuter modellari o‘quvchilarni eksperimentlar o‘tkazishga undashi va o‘zlarining kashfiyotlaridan qoniqishlari ham ta’kidlanadi².

2. Metallar mavzusi bo‘yicha virtual laboratoriyalarni qo‘llagan holda dars ishlanmasini yaratish

Ma’ruza: Metallarning tabiatda tarqalishi, olinishi va ishlatilishi

1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli

Mashg‘ulot vaqti – 1 soat	O‘quvchilar soni: 25-35
Mashg‘ulot mavzusi	Metallarning tabiatda tarqalishi, olinishi va ishlatilishi
Mashg‘ulot shakli	Ma’ruza

¹Barney Dalgarno, Andrea Bishop, Danny Bedgood. The potential of virtual laboratories for distance science education teaching: reflections from the initial development and evaluation of a virtual chemistry laboratory // Proceedings of the Improving Learning Outcomes Through Flexible Science Teaching. – Symposium. - The University of Sydney. - October 3. - 2003, 90-95P.

²Dan Carnevale. The Virtual Lab Experiment // Chronicle of Higher Ed. - January 31. – 2003. - p. A30.

<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Metallarning tabiatda tarqalishi 2. Metallarning olinishi va ishlatilishi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish bilan birga, o'quvchilarga metallarning tabiatda tarqalishi va ishlatilishi haqida ma'lumot berish.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Metallarning tabiatda tarqalishi haqida tushuncha berish - Metallarning olinishi va ishlatilishi haqida tushuncha berish	<i>O'quv faoliyati natijalari (o'quvchi)</i> - Metallarning tabiatda tarqalishi haqida tushunchaga ega bo'ldi - Metallarning olinishi va ishlatilishi haqida tushunchaga ega bo'ldi
<i>Ta'lim berish usuli</i>	Ma'ruza, muammoli metod
<i>Ta'lim berish shakli</i>	jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Kompyuter, ekran, proektr, virtual laboratoriya, animatsiyalar, video roliklar, doska,
<i>Ta'lim berish sharoitlari</i>	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirishga ega bo'lgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	O'z-o'zini nazorat, savol-javob, rag'batlantirish

2. "Metallarning tabiatda tarqalishi, olinishi va ishlatilishi" darsining texnologik xartasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'quvchi</i>	<i>O'quvchi</i>
1-bosqich Kirish	1.1. Ma'ruza rejasi e'lon qilinadi, mavzuning maqsadi va o'quv faoliyat natijalari tushuntiriladi(1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi

O'quv mashg'ulotining maqsadi: mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish

o'quvchilarga metallarning tabiatda tarqalishi, olinishi va ishlatilishini o'rgatish.

O'quv faoliyatining natijasi: o'quvchilar metallarning tabiatda tarqalishi, olinishi va ishlatilishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

2-ilova

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-2 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-2 ball	Guruh azolarining faolligi 0-1 ball	Jami ball 5

5 ball – «a'lo»

4 ball – «yaxshi»

3 ball – «qoniqarli»

2 ball – «qoniqarsiz»

3-ilova


- Davriy sistemadagi 118 elementning 96 tasi metallardir.
- I, II, IIIguruhning barcha elementlari (Hva B dan tashqari) metallar.
- IVguruh bosh guruhchasida Cva Si dan tashqari barcha elementlar metallar.
- V guruh bosh guruhchasida ikkita metall SbvaBi.

- VI guruh bosh guruhchasida bitta metallPo.
- IV, V, VI, VII, VIII guruhlarning yonaki guruhchalarida barcha elementlari metallardir.

Qadim zamonlarda odamlar yetita metallni bilgan: oltin, kumush, mis, temir, qalay, qoʻrgʻoshin, simob. *(Metallarning tashqi koʻrinishi virtual laboratoriyadan foydalangan holda oʻquvchilarda tushuntirilib oʻtiladi.)*



oltin



kumush



mis



temir



qalay



qalay




simob

Hozirgi kunda turmushni metallarsiz tasavvur qilib bulmaydi, oʻnlab metallar va qotishmalar xalq xoʻjaligining barcha sohalarini qamrab olgan. Oʻgʻir yuklarni tashuvchi va yengil mashinalar, qishloq xoʻjaligi mashinalari, teplovoz, paravoz, tayyorlardan tortib oddiy igna, mix, ruchka va hokazalar barchasi metallardan yasalgan yoki asosiy qismini metallar tashkil qiladi. Temir, mis, rux, nikel, kobalt, alyuminiy, magniy, volfram, molibden, tantal, titan, niobiy kabi metallar va poʻlat, choʻyan, bobbitt, duraluminiy, nixrom singari qotishmalar katta amaliy ahamiyatga egadir.

Tabiatda tarqalishi

Металларнинг табиатда учраши



Фаол металлар тузлари
ҳолида учрайди:

Сулфатлар: CaSO_4 , BaSO_4

Хлоридлар: NaCl , KCl

Карбонатлар: CaCO_3

Фосфатлар: $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$

Нитратлар: NaNO_3 , KNO_3

Ўрта фаол металлар
оксидлари ва
сулфатлари ҳолида
учрайди:

Оксидлар: Fe_2O_3 ,

Fe_3O_4

Сулфидлар: PbS , ZnS ,

FeS_2

Сулфатлар: $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$,

Пассив металлар эркин
ҳолда учрайди:

Cu – мис

Hg – симоб

Ag – кумуш

Au – олтин

Pt – платина

4-ilova

1. Davriy sistemada nechta metall bor?
2. Qadim zamonlarda odamlar qaysi metallarni bilgan?
3. Nima uchun mis tabiatda erkin holda uchraydi va nima uchun natriy uchramaydi?
4. VI guruh bosh guruhchasida bitta metall qaysi metall bor?







5-ilova

Olinishi. Metallarni birikmalaridan ajratib olish bilan metallurgiya shug'ullanadi. Metallurgiyaning asosiy vazifalari metallarni birikmalaridan qaytarish va metallarni boshqa metallardan ajratishdan iborat.

Metallarni birikmalaridan olish uchun turli usullar qo'llaniladi. Sanoatda metallarni olish usullarining barchasi oksidlanish-qaytarilash reaksiyalariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda quyidagi usullardan foydalaniladi:



- Pirometallurgik usullar
- Gidrometallurgik usullar
- Elektrotermik usullar

Pirometallurgik usullarda metallarni olish yuqori haroratlarda metall birikmalarini bevosita termik ishlovdan o'tkazishga (passiv metallarni olish) yoki uglerod, uglerod IV – oksid, alyuminiy, kremniy yoki vodorod yordamida metall oksidlarini qaytarishga asoslangan (sulfidlar oldin kuydirilib oksidlarga qaytariladi):






Bu usullar yordamida po‘lat va cho‘yan olinadi.

Gidrometallurgik usullarda metallar olish ularning birikmalarini eritmaga o‘tkazib, yuqori haroratlarsiz, elektroliz yordamida yoki boshqa metallar ta’sir ettirib qaytarishga asoslangan:



Bu usullar yordamida oltin, kumush, rux, uran va boshqa metallar olinadi.

Yelekrotermik usullarda metallarni olish oksidlar, gidroksidlar, tuzlar suyuqlanmalarini elektroliz qilishga asoslagan:



Bu usullar yordamida ishqoriy va ishqoriy – yer metallar, alyuminiy olinadi. **(animatsiya)**

6-ilova

1. Metallar qanday usullarda olinidi?
2. Pirometallurgik usuldan gidrometallurgik usulning afzalligi nimada?
3. Nima uchun misning birikmalariga temirni ta’sir ettirib olib mumkin. Lekin, natriy birikmalariga temirdan tashqari boshqa metallarni ham ta’sir ettirib olib bo‘lmaydi.

Metallar namunalarini ko‘zdan kechirish

4-laboratoriya ishi

Ta’lim berish texnologiyasining modeli

Mashg‘ulot vaqti 1-soat	O‘quvchilar soni: 15 tagacha
-------------------------	------------------------------

Mashg'ulot mavzusi	Metallar namunalarini ko'zdan kechirish
Mashg'ulot shakli	Laboratoriya
Laboratoriya ish rejasi:	1. Metallar namunalarini ko'zdan kechirish va suyuqlanish harorati qattiqligini aniqlash 2. Hisobot yozish
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	
1. Ta'lim beruvchi: O'quvchilar metallarning namunalarini ko'zdan kechirish orqali, bilimlarini yanada chuqurlashtiradi.	
2. Rivojlantiruvchi: O'quvchilar tajribalarni bajarish to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi.	
3. Tarbiyalovchi: Diqqatli bo'lish, kuzatuvchanlik va estetik hissiyotlarini tarbiyalashni davom ettirish.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari (o'quvchi):
1. Metallar namunalarini ko'zdan kechirish va suyuqlanish harorati, qattiqligini aniqlash 2. Hisobot yozish	1. Metallar namunalarini ko'zdan kechiridilar va suyuqlanish harorati, qattiqligini aniqlaydilar 2. Hisobot yozadilar
Ta'lim berish usullari	Laboratoriya ishi. Klaster metodi
Ta'lim berish shakllari	Guruhli
Ta'lim berish vositalari	Kompyuter, virtual laboratoriya, ekran, proektor, doska (tarqatma materiallar)
Ta'lim berish sharoiti	Laboratoriya xonasi
Monitoring va baholash	O'z-o'zini nazorat, savol-javob, rag'batlantirish

Metallar namunalarini ko'zdankechirish

4-laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi</i>

1-bosqich Kirish (5- daqiqa)	1.1. Labortaoriya mashg‘uloti rejasi e’lon qilinadi, mavzuning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari tushuntiriladi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	Mavzuni o‘tish shakli va baholash mezonlari e’lon qilinadi. (2-ilova)	Yozib oladi
2-bosqich Asosiy qism (30-daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi bandi bo‘yicha tajribalar bajaradi (3-ilova) 2.2. Rejaning ikkinchi bandi bo‘yicha o‘quvchilar «klaster» metodidan foydalanib hisobot yozishadi. (4-ilova)	Yozadib savollarga javob beradi. Yozadi diagrammani to‘ldiradi.
3 bosqich Yakuniy bosqich (10- daqiqa)	3.1. Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qiladi.	Tinglaydi
	3.2. Talabalarning baholash mezonlarini e’lon qiladi	Yozib oladi
	3.3. Jonlantirish uchun savollar beradi (5-ilova)	Javob yozadi

1-ilova

Mavzu: Metallar namunalarini ko‘zdan kechirish

Reja:

1. Metallar namunalarini ko‘zdan kechirish va suyuqlanish harorati, qattiqligini aniqlash

2. Hisobot yozish

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:

1. Ta’lim beruvchi: Metallar namunalarini ko‘zdan kechirish natijasida bilimlarni chuqurlashtirish;

2. Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning tajriba bajarish to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytirishni davom ettirish;

3. Tarbiyalovchi: diqqatli bo‘lish, kuzatuvchanlik va estetik hissiyotlarni tarbiya qilishni davom ettirish.

O‘quv faoliyatining natijasi: O‘quvchilar metallar namunalarini ko‘zdan kechirish, xulosalar qilish, hisobot yozishni o‘rganadilar.

2-ilova

Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to‘liq va aniq yoritilishi 0-2 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-2 ball	Guruh a‘zolarining faolligi 0-1 ball	Jami ball 5

5 ball – «a’lo»

4 ball – «yaxshi»

3 ball – «qoniqarli»

2 ball – «qoniqarsiz»

3-ilova

1. Berilgan metall namunalarini ko‘rib chiqing va ularning nomini ayting.

2. Sizga berilgan metallarning suyuqlanish harorati va qattiqligini ma'lumotnoma jadvalidan foydalanib aniqlang.

3. Metallarning issiqlik o'tkazuvchanligini taqqoslash uchun temir va misdan yasalgan ikkita bir xil plastinka olib, ikkala plastinkaning bir uchiga parafin bo'lagini joylashtiring. So'ngra bu plastinkalarning ikkinchi uchini gorelka alangasida tuting. Kuzatish asosida qaysi metallning issiqlik o'tkazuvchanligi yuqori ekanligini aniqlang.

MUSTAQIL XULOSA UCHUN TOPSHIRIQ

1. Sizga berilgan metall namunalarini tekshirib, ularning nomini ayting.
2. Tekshirish uchun berilgan metallarning qattiqligi, suyuqlanish harorati va issiqlik o'tkazuvchanligi ortib borishi tartibida, bir qatorga yozing.

O'quvchilar berilgan metall namunalarini tashqi tuzilishiga qarab aniqlashadi. Agar qaysi metall ekanligini topa olmasalar, virtual laboratoriyaning davriy sistema bo'limidan metallarning tuzilishi bilan solishtirgan holda aniqlashadi.

Virtual laboratoriyadan foydalangan holda istalgan metallni suyuqlanish va qaynash temperaturalarini aniqlab, bir-biri bilan solishtirishadi.

Virtual laboratoriyadan foydalanib metallarning tashqi ko'rinishi, suyuqlanish temperaturasi va qattiqligini aniqlalashadi.

Виртуална Химична Лаборатория

Начало Пособия Приложения Помощ

Химична Лаборатория

Работна площ

Периодична система на химичните елементи

Периодична Система на Химичните Елементи

Подробна информация за елемента Мед

Просто Вещество

Физични Свойства

Химичен Знак	Cu
Пореден Номер	29
Атомна Маса	63,546
Температура на Топене	1083 С (1356,15 К)
Температура на Кипене	2567 С (2840,15 К)
Брой на Електроните	2,8,18,1
Изотопи	11
Атомен Радиус	1,57

История, Химични Свойста и Значение

Мед
/От лат. Cuprum - Кипър/
Известен е на древните цивилизации

Химични свойства:

Ce Pr Nd Pm Sm Eu Gd Tb Dy Ho Er Tm Yb Lu

** Актиноиди

Th Pa U Np Pu Am Cm Bk Cf Es Fm Md No Lr

Вещества

Метали Неметали Ок

K Mg Ca Al Li Ba Na Be Cs Zn Cu Fe

прибори и пособия

пулк

Виртуална Химична ... D:\Мои документы\... Металлар наунала... EN 01:11

Виртуална Химична Лаборатория

Начало Пособия Приложения Помощ

Химична Лаборатория

Работна площ

Периодична система на химичните елементи

Периодична Система на Химичните Елементи

Подробна информация за елемента Алюминий

Просто Вещество

Физични Свойства

Химичен Знак	Al
Пореден Номер	13
Атомна Маса	26,98154
Температура на Топене	660,37 С (933,52 К)
Температура на Кипене	2519 С (2792,15 К)
Брой на Електроните	2,8,3
Изотопи	8
Атомен Радиус	1,82

История, Химични Свойста и Значение

Алюминий
/Лат. alumen - мѝя/
Открит е през 1825 г. от Х. К. Оерстед /Копенхаген, Дания/

** Актиноиди

Th Pa U Np Pu Am Cm Bk Cf Es Fm Md No Lr

Вещества

Метали Неметали Ок

K Mg Ca Al Li Ba Na Be Cs Zn Cu Fe

прибори и пособия

пулк

Виртуална Химична ... D:\Мои документы\... Металлар наунала... EN 01:12

Виртуална Химична Лаборатория

Начало Пособия Приложения Помощ


Химична Лаборатория

Работна площ

Периодична система на химичните елементи

Периодична Система на Химичните Елементи

Подробна информация за елемента Желязо

Просто Вещество	Физични Свойства
	Химичен Знак: Fe
	Пореден Номер: 26
	Атомна Маса: 55,847
	Температура на Топене: 1535 C (1808.15 K)
	Температура на Кипене: 2861 C (3134.15 K)
	Брой на Електроните: 2,8,14,2
	Изотопи: 10
	Атомен Радиус: 1.72

История, Химични Свойста и Значение

Желязо
/Англ. iron, лат. ferrum/
Известен е на древните цивилизации.

Химични свойства:

Вещества

Метали Неметали Ок

K Mg Ca Al Li Ba Na Be Cs Zn Cu Fe

прибори и пособия

пулк

Виртуална Химична ... D:\Мои документи\... Металлар научна... EN 01:13

Виртуална Химична Лаборатория

Начало Пособия Приложения Помощ


Химична Лаборатория

Работна площ

Периодична система на химичните елементи

Периодична Система на Химичните Елементи

Подробна информация за елемента Цинк

Просто Вещество	Физични Свойства
	Химичен Знак: Zn
	Пореден Номер: 30
	Атомна Маса: 65,39
	Температура на Топене: 419.58 C (692.73 K)
	Температура на Кипене: 907 C (1180.15 K)
	Брой на Електроните: 2,8,18,2
	Изотопи: 15
	Атомен Радиус: 1.53

История, Химични Свойста и Значение

Цинк
/От нем. zink/
Известен е в Индия и Китай от 1500 г

Химични свойства:

Вещества


Метали Неметали Ок

K Mg Ca Al Li Ba Na Be Cs Zn Cu Fe

прибори и пособия


пулк

Виртуална Химична ... D:\Мои документи\... Металлар научна... EN 01:15



“Klaster” metodini joriy qilish. Bu metodni mavzuni o`qitish jarayoniga tatbiq qilish uchun metallar namunalarini ko`zdan kechirish, ularning suyuqlanish harorati, qattiqligi, issiqlik o`tkazuvchanligi qiymatlari aks etgan klaster tuziladi.

Fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya bo`lib, u o`quvchilarni metallar mavzusiga oid tajribalar o`tkazishga yordam berib, o`quvchilar mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog`lagan holda tarmoqlab yozishadi. O`quvchilar tarmoqlab yozgan fikrlar yuzasidan qizg`in bahs- munazara olib boriladi. Eng yaxshi deb topilgan fikrlarga yuqori ball qo`yiladi, hamda rag`batlantiriladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Yuqorida berilgan metallarni suyuqlanish temperaturasi ortib borish tartibida joylashtiring.
2. Yuqorida berilgan metallarni elektr tokini yomon o'tkazishi tartibida joylashtiring.
3. Nima uchun alyuminiyga qaraganda mis elektr tokini yaxshi o'tkazsa ham, elektr simi sifatida alyuminiydan foydalanamiz?
4. Metallarning bir-biriga o'xshashligi va farqlarini aytib o'ting.
5. Metallarning elektr o'tkazuvchanligini, bolg'alanuvchanligini qayday izohlaysiz?

Xulosa. Shunday qilib, hozirgi zamon o'rta umumta'lim maktabi sharoitlarida virtual jarayon an'anaviy o'qitishning boy pedagogik potensialidan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, bu uni yangi yuqori pogonaga – virtual kompyuter texnologiyalari pogonasiga ko'tarish natijasidagina sodir bo'ladi. Bundan tashkari, bilimlarning yangi sohalarini o'rganish mobaynida virtual-axborot-ta'lim laboratriyasi sharoitlarida o'quv jarayonini modellashtirish orkali bizni o'rab turgan olamni bilishda o'quvchilarning mustakil faoliyati aktivlashadi, vujudga kelayotgan masala va muammolarni mustakil yechish kunikmalari shakllanib boradi, olingan bilimlarni amalda qo'llashga tayyorgarlik paydo bo'ladi. Demak, o'quvchilar mustakilligining rivojlanishiga yordam beruvchi virtual laboratoriyalardan foydalanish elektron ta'lim mahsulotining amaliyotga joriy etilishida olinajak muvaffakiyatning ajralmas qismidir.

III BOB. PEDAGOGIK EKSPERIMENT

1. Pedagogik eksperiment uchun sinflarni tanlash

Pedagogik eksperiment – pedagogik jarayonni aniq hisoblashlar sharoitlarida o‘zgartirishga qaratilgan ilmiy jihatdan qo‘yilgan eksperimentdir. Mavjud narsalarni registratsiya qilishga asoslangan metodlardan farqli ravishda, pedagogikada eksperiment yaratuvchanlik xarakteriga egadir. Masalan, eksperiment natijasida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning yangi usullari, shakllari, sistemalari amaliyotga yo‘l oladi. Ma’lumki, pedagogik eksperiment o‘quvchilar gruppasini, sinfni, maktabni yoki bir nechta maktablarni qamrab olishi mumkin. Pedagogik eksperimentda hal qiluvchi yoki belgilovchi rol ilmiy gipotezaga tegishlidir. Mana shu gipotezani tadbiq etish – hodisalarni kuzatishdan ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochishga o‘tish shaklidir. Shuning uchun eksperiment natijalarining haqqoniyligi (ishonchliligi) eksperiment sharoitlariga rioya qilishga to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘likdir.

Maqsadga bog‘liq ravishda pedagogik eksperiment turlari quyidagichadir:

- mavjud pedagogik hodisalarni o‘rganuvchi va konstatatsiya qiluvchi eksperiment;
- muammoni anglash jarayonida tekshirish zarur bo‘lgan tekshiruvchi, aniqlashtiruvchi eksperiment;
- yangi pedagogik hodisalar konstruksiyalanadigan yaratuvchi, o‘zgartiruvchi va shakllantiruvchi eksperiment.

Bundan tashqari, olib boriladigan joyiga qarab tabiiy va laboratoriya pedagogik eksperimentlari ajratib ko‘rsatiladi¹.

Tabiiy pedagogik eksperiment berilayotgan gipotezani o‘quv-tarbiya jarayonini buzmasdan olib boriladigan ilmiy tashkil etilgan eksperimentdir. Aksariyat hollarda reja va dasturlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, o‘qitish va

¹В.В.Краевский. Методология педагогического исследования: Пособие педагога-исследователя / В.В.Краевский. – Самара. - 1994.

